

## FRAZEOLOGIZMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA PRAGMATIK TAHLILI

Toshkent shahar

Yashnobod tumani

255- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ingliz tili fani o'qituvchisi

**Tuychiyeva Manzura Xojimurodovna**

[aruznam88@mail.ru](mailto:aruznam88@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola frazeologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, lingvomadaniy tamoyillari, diniy va dunyoviy qarashlari haqida keng ma'lumot beradi. Maqolada frazeologizmlarga oid turli birikmalar batafsil tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** frazeologoya, lingvomadaniyat, lingvokulturologiya, pragmatika, idioma

**Abstract.** This article provides extensive information about the peculiarities of phraseology, linguistic and cultural principles, religious and secular views. The article analyzes various combinations of phraseology in detail.

**Key words:** phraseology, linguistic culture, linguistic culture, pragmatics, idiom.

Frazeologiya ma'lum bir ma'noni bo'rttirish va yoki uni ozaytirib ko'rsatish demakdir. Agar bu jarayonni oddiy so'zlarda ifodalasak,

yuz – bet - aft – bashara – turq

jamol – chehra – yuz kabilar hosil qilinishi mumkin.

Diskursda qo'llanilishiga misol keltiramiz:



*Ququbonu basharang qursin, degandek qo'lini siltab qaytib chiqib ketmoqchi bo'lganida ortidan kirib kelayotgan mahalla xotin-qizlari raisi Ma'mura opaga urilib ketdi<sup>107</sup>.*

Ushbu ibora “*basharang qursin*” pozitiv holatda qo'llanila olmasligini o'zi diskurs jarayonini tashkil etadi. Shuningdek, ushbu frazemani *yuzing qursin, beting qursin* deb almashtira olmaymiz ham. Chunki hikoyadagi kayfiyat, yozuvchi tabiati bizdan shuni talab qilmoqda.

Yoki quyidagi namunalarga diqqat qiling.

*O'lmoq* so'zi joni *uzilmoq* – *dunyodan ketmoq* – *foniyl dunyodan rihlat qilmoq, omonatini topshirmoq* kabi frazeologik intensivatorlarga ega

Ingliz tilida esa:

*Die – pass away - depart this life - meet your end - push up the daisies - go to glory - relinquish life* ga tog'ri keladi.

E'tibor beradigan bo'lsak, “*omonatini topshirmoq*” frazemasi “*o'lmoq*” so'zidan ko'ra anchagina keng ma'noni ifodalaydi.

Millatning dinidan kelib chiqadigan bo'lsak, inson joni – bu omonat, demak ushbu frazema omonatni o'z berguvchisiga, ya'ni Haqqa topshirmoq zaruratini anglatadi.

“*Keyingi paytlarda «xizmat vazifasini ado etayotgan paytda...» degan jumlagaga ko'p ko'z tushyapti. Odatda bu ta'rif Vatan sarhadlarini qo'riqlayotgan yoki el osoyishtaligini ta'min etayotgan askarlarga nisbatan ishlatilardi. Bugun ayni nisbat shifokorlarga qo'llanilayotir.*

*Jahonni zabtiga olgan tojsimon virus ongu shuurimizni o'zgartirib yubordi. Endilikda shifokorlar aynan ko'rinmas yovga birinchi qalqon vazifasini o'tashmoqda. Ular o'z moli yoki mansabini emas, balki aziz jonini garovga qo'yib, bemorlarni hayotga qaytarishga kechayu kunduz urinmoqdalar. Taassufki, urush qurbonsiz bo'lmaydi. Ko'rinmas yov bilan*

<sup>107</sup> O'KTAM MIRZAYOR. SOVG'A (HIKOYA), 5-qism

<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/o-ktam-mirzayor-1956/o-ktam-mirzayor-sovg-a-hikoya>



*bo'layotgan muhorabalarlarda bugunning tom ma'nodagi qahramonlari — shifokorlarimizni ham berib qo'ymoqdamiz.*

*Kuni kecha Xiva o'z qahramonlaridan birini Haqning huzuriga kuzatdi: tajribali va fidoyi shifokor Baxtiyor Qilichev 66 yoshida omonatini Egasiga topshirdi. Sabab — o'sha: koronavirus asoratlari!"*

Kontekstda e'tibor beradigan bo'lsak, ushbu jumla faqatgina pozitiv ma'noda, pozitiv shaxslarga qo'llanilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin, bu esa diskursning asosiy mohiyatini ifoda etadi, ya'ni kontekstda uning boshqa so'zlar bilan uyg'un bo'lishi ayni muhimlikda.

*Big mouth* frazemasini ham tahlil qilib ko'raylik:

O'zbek tiliga *katta og'iz - og'zi polvon – katta gapirmoq – katta ketmoq* kabi tarjima qilinadi va yuqoridagicha darajanadi.

Ingliz tilida esa *blow one's own trumpet – show off - blow/toot one's own horn* kabilardir.

Ma'lumki, garchi "*katta og'iz*" "*big mouth*" iboralari ikki tikda ham bir xillik kasb etsada, o'zbek xalqida polvonlik maqtashga arzigulik jarayon hisoblangani uchun "*og'zi polvon*" iborasi qo'llanilgan bo'lsa, ingliz xalqida "*trumpet*" truba musiqa asbobi juda ommabop hisoblanadi va aynan ushbu frazemalarning intensifikatsiya jarayonida diskursning ahamiyati hisoblanadi, ya'ni ushbu tillarning kelib chiqishi, madaniyati va millati, urf-odat va an'analari ushbu iboralarni paydo bo'lishiga keng zamin yaratadi va asos bo'ladi. Albatta, ushbu frazeologik intensifikatorlar diskursda to'g'ri qo'llanilgandagina muomala va muloqot jarayoniga mos va xos hisoblanadi.

Quyida yana bir nechta frazeologik intensifikatorlarni o'zbek tiliga muqobil tarjimasi bilan namuna sifatida ko'rsatamiz.

*Little lie - white lie – arzimas yolg'on*

*young at heart – kichik ko'ngil*

*black market – qor bozor*

*a sunny smile – yorqin tabassum*

*a cash cow – foydali biznes*



*as gentle as a lamb – qo'ydek yuvosh*  
*as tall as maypole - Terakdek uzun, mirzaterak*  
*alive and well – joni temirdek*  
*An old chestnut - siyqa gap, siyqasi chiqqan hazil*  
*Thick skin –Terisi qalin*  
*Thin skin –Terisi yupqa*  
*A blind alley –Boshi berk ko'cha*

*Blood is thicker than water – qoni qo'shilgan, qoni bir*  
*“The pen is mightier than the sword” – so'z qilichdek keskir*  
*More power to your elbow – bilagingga kuch bersin*

iboralari ham xuddi shunday tahlil qilinishi va diskurs bilan bog'lanishi mumkin.

Shu jumladan, pragmatika ham ushbu sohaga dahldor hisoblanadi

Quyida frazeologik birliklarni ingliz va o'zbek tillarida qiyoslab tahlil qilishdan avval, pragmatik jihat nima ekanligini asoslab beramiz.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni hisoblanib, muayyan muloqot jarayoni orqali namoyon bo'ladi. Pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi va tinglovchining o'zlarigagina tushunarli bo'lgan o'zaro munosabatlari va vaziyati bilan bog'liq ma'lum bir masala kiradi.

Misol uchun:

- biron-bir axborot yoki fikrni yetkazishda ishlatiladigan so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat qilish
- nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari;
- suhbat, so'zlashish qoidalari;
- so'zlovchining maqsadi;
- so'zlovchi tomonidan tinglovchining umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va xislatlariga baho berilishi;
- so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati va boshqalar kiradi.

Agar frazeologizmlarni pragmatik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ma'lum bir vaziyatga qarata aytilgan frazeologik birlikni ham so'zlovchi, ham tinglovchi tomonidan

to'g'ri tushunilib, o'sha vaziyatga mosligi aniqlangan holda aytilgan; so'zlovchining maqsadi frazeologik birlik orqali to'liq ochib berilgan va so'zlovchi tomonidan nutqqa mos gap ohangi aytilgan bo'lmog'i darkor.

Endi quyidagi frazemaga e'tibor beraylik:

**think on one's feet** frazeologik birligi o'zbek tiliga so'zma so'z tarjima qilinganda, **“kimningdir oyog'i ustida o'ylamoq”** kabi o'zbek tiliga tushunarsiz ma'no beradigan so'zlar jamlanmasini anglatadi, xolos. Biroq, uni nutqda yoki ma'lum bir asarda shundayligicha tarjima qilib bo'lmaydi. Shuning uchun, tilimizda unga mos bo'lgan iboralarni qidirib ko'ramiz.

*When you're called on in class, you have to be able to **think on your feet**.*

Ushbu inglizcha namunani tilimizga quyidagicha tarjima qilish mumkin.

*Dars jarayonida seni chaqirishganida, hamisha **hayoling o'zing bilan bo'lishi** lozim.*

Yoki:

*I had never heard about the company before, so I had to **think on my feet**.*

*Men u kompaniya haqida avval hech qachon eshitmagandim, shuninguchun **yashin tezligida qaror qilishimga** to'g'ri keldi.*

Guvohi bo'lganimizdek, ingliz tilidagi aynan bir xil iborani o'zbek tiliga ikki xil tarjima qilishimizga to'g'ri keldi, buning sababi pragmatika. Ya'ni pragmatik ma'no nutq jarayoniga mos bo'lishi uchun nutqda tarjima mahoratining o'rni beqiyos.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalilova Nilufar Dilshodovna (2019). O'zbek va ingliz tillarida idiomalarni taqqoslashning lingual tahlili. Vestnik nauki i obrazovaniya, (20-2 (74))
2. Lakoff G. The Invariance Hypothesis: Is Abstract Reason Based on Image Schemata? // Cognitive Linguistics. 1990. Vol. 1, №1. P. 39–74.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live by. Chicago, 1980. 242 p.
4. Алехина А.И. Семантические группы во фразеологии современного английского языка. М., 1977.
5. Алехина А.И. Фразеологическая единица и слово. М., 1979. (In Russ.).



6. Бушуй Т.А., Сафаров Ш. Тил қурилиши. Таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент, Фан, 2007.

